

RAQAMLI DIDAKTIKA: NAZARIY TA’RIF, TA’LIM VA IJTIMOY SOHADAGI AHAMIYATI

¹Temirova Shaxlo Rahmonovna, ²Xidraliyev Rahmatulloh Toxir o’g’li

¹O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Boshqarma boshlig’i
o’rinbosari. ²O’zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Talaba

¹temirovash87@gmail.com, ²romka4140.vb@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10980449>

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish natijasida jadal rivojlanishni boshdan kechirmoqda. Ushbu jadal texnologik taraqqiyot ta’lim va ijtimoiy sohadagi global o’zgarishlarga olib keladi va didaktikaga an’anaviy yondashuvlarni qayta ko’rib chiqishni taqozo etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu maqola raqamli didaktika nazariyasi va uning hozirgi zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi, shuningdek yurtimizda mavjud raqamli ta’lim tizimi haqida ma’lumotlarni yoritadi.

Kalit so’zlar: raqamli didaktika, zamonaviy jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim

Abstract. Modern society is experiencing rapid development as a result of the wide use of information and communication technologies. This rapid technological development leads to global changes in the educational and social spheres and requires a revision of traditional approaches to didactics. Taking into account the above, this article sheds light on the theory of digital didactics and its relevance in today's modern society, as well as information about the existing digital education system in our country.

Keywords: digital didactics, modern society, information and communication technologies, digital education

Аннотация. Современное общество переживает бурное развитие в результате широкого использования информационных и коммуникационных технологий. Такое стремительное технологическое развитие приводит к глобальным изменениям в образовательной и социальной сферах и требует пересмотра традиционных подходов к дидактике. Принимая во внимание вышеизложенное, данная статья освещает теорию цифровой дидактики и ее актуальность в современном обществе, а также информацию о существующей системе цифрового образования в нашей стране.

Ключевые слова: цифровая дидактика, современное общество, информационно-коммуникационные технологии, цифровое образование.

Didaktika ilmiy nazariya sifatida ta’lim va tarbiya jarayoniga muhim ta’sir ko’rsatadi. Didaktikaning boy ilmiy merosi va ta’limdagi so’nggi tendentsiyalarga tayangan holda, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O’zbekiston — 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida, Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risidagi Qaroriga muvofiq biz raqamli usullar va muhandislik yondashuvining integratsiyalashuvi ta’lim jarayonida qanday yangi istiqbollar va imkoniyatlarga olib kelishi mumkinligiga e’tibor qaratamiz.


Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog’liqni saqlash va qishloq xo’jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha

hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.[1]

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish tashabussi barcha ijtimoiy sohalarni qamrab oladi va buning rivojida didaktikaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi, ayniqsa raqamli didaktikaning. “Xo'sh, raqamli didaktika o'zi nima?” degan savol jamiyatimiz pedagoglari orasida tug'ilishi tabiiy. Sababi har soha egasi va mukammal mutaxassisini yetqizib chiqarish bevosita pedagoglarga bog'liq.

Raqamli didaktika - bu raqamli texnologik revolyutsiya ta'sirida vujudga kelayotgan ta'lim muammolarini zamonaviy axborot jamiyati vositalari va metodlaridan foydalangan holda tizimli hal qilish.[4]


Ustoz-pedagoglarimiz orasida an'anaviy “Didaktik uchburchak” tushunchasi ma'lum. Yanada yoritadigan bo'lsak “O'qituvchi – O'quvchi – Kontent(o'quv mundarijasi)” uchligining a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, didaktik uchburchak deyiladi. (1-rasm) Bu tushuncha ko'plab jahon pedagog olimlari asarlarida ta'kidlab o'tilgan. [5]



1-rasm. An'anaviy “Didaktik uchburchak”.


XXI asr boshi ta'limda yangi texnologiyalardan jadal foydalanish bilan bog'liq inqilobiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Global tarmoqning odamlar va jamiyatning kundalik hayotiga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hozirda global tarmoqqa yuz millionlab shaxsiy kompyuterlar va boshqa mobil qurilmalar (masalan, shaxsiy raqamli qurilmalar, mobil telefonlar) ulangan. Biz yangi fenomen (hodisa)ning tug'ilishi - milliarddan ortiq kishidan iborat global virtual ta'lim hamjamiyatining shakllanishi guvohi bo'lib turibmiz va bu raqam doimiy ravishda o'sishda davom etmoqda.

1-rasmدا tasvirlangan “O'qituvchi – O'quvchi – Kontent(o'quv mundarijasi)” didaktik uchburchagining klassik sxemasi va ular o'rtasidagi o'zaro ta'siri tushunchasi raqamli ta'limning o'ziga xos xususiyati haqida tasavvur bermaydi. Raqamli o'qitishda komponentlar orasidagi o'zaro ta'sir *raqamli ta'lim muhitiga* o'tkaziladi va sxemamiz quyidagi ko'rinishni aks ettiradi: O'qituvchi – O'quvchi – Raqamli ta'lim muhiti”. [6] (2-rasm)



2-rasm. Raqamli ta'lim muhiti doirasidagi didaktik uchburchak.

Ammo sub'ektlar raqamli muhit doirasida o'zaro aloqada bo'lganda o'quv jarayonini muvaffaqiyatli qurishning zarur sharti pedagogik texnologiyalardan asosli va metodik jihatdan malakali foydalanish hisoblanadi. Bugungi kunda global o'zgarishlar, axborot oqimining ko'payishi va yangi texnologiyalardan ta'lim sohasida intensiv foydalanish tufayli Internet odamlar va jamiyatning kundalik hayotiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. O'quv jarayonida yangi texnologiyalardan doimiy ravishda intensiv foydalanish natijasida 21-asr boshlarida didaktikaning predmeti, maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishga urinishlar qayd etilgan. Shu sababli 3-rasmda tasvirlanganidek *didaktik tetraedr*ni olish uchun didaktik uchburchakning evristik texnikasini kengaytirish, o'quv mundariyasi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik qilishda texnologiyaning muhim rolini e'tirof etadigan to'rtinchi cho'qqini qo'shish uchun turli xil takliflar ishlab chiqilgan.[6]



3-rasm. Didaktik tetraedr

Zamonaviy raqamli texnologiyalar tufayli odamlar eng yaxshi ta'lim tashkilotlari va bilimning barcha sohalari bo'yicha mutaxassislardan foydalanish imkoniyatiga ega. Universitetlarning ochiq o'quv resurslari, ilmiy markazlar, elektron kutubxonalar barcha xohlovchilar uchun mavjud. Sinf xonalari va universitet auditoriyalari talabalar materialni o'rganish va ma'lumot qidirish uchun foydalanadigan ko'plab raqamli qurilmalar bilan to'ldirilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda talabalar va o'quvchilar oddiy kitoblarga qaraganda elektron vositalarni afzal ko'rishadi.

Bu borada Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi jamoasi allaqachon birinchi qadamni qo'ygan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi hamkorligida 2020-yildan buyon ta'lim sifatini zamonaviy yuqori darajaga olib chiqish maqsadida raqamli ta'lim tizimini ishlab chiqish bo'yicha faol harakat qilib kelmoqda. *Maktab.uz* onlayn platformasi o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar uchun raqamli ta'lim kontentini taqdim etadi va muntazam yangilanib boruvchi va xalqaro ta'lim standartlariga javob beradigan zamonaviy ta'lim muhitidir.[7]

Xulosa

Maqolada didaktika ilmiy nazariyasi va uning ta'limdagi o'rni, O'zbekiston Respublikasining ta'lim va ijtimoiy sohadagi tashabbuslariga muvofiq raqamli didaktikaning muhimligi ochib berildi. Tadqiqot natijasida an'anaviy didaktikani qayta ko'rib chiqish, unga zamon talabiga mos ravishda yondashish, shuningdek hozirda mavjud manbalardan unumli foydalanish bilan ta'lim tizimini yuqori bosqichga olib chiqish mumkinligi ko'rib chiqildi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son. <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son. lex.uz/docs/-5073447
4. Штакк Е.А., Беляева А.В., Молоканова Ю.П., Беляев Г.Ю. ЦИФРОВАЯ ДИДАКТИКА И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ДОСТИЖЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ // Нижегородское образование. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-didaktika-i-ee-vliyaniye-na-dostizheniya-obuchayuschixsya> (дата обращения: 13.04.2024).
5. Чошанов Мурат Аширович Е-дидактика: новый взгляд на теорию обучения в эпоху цифровых технологий // ОТО. 2013. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/e-didaktika-povuy-vzglyad-na-teoriyu-obucheniya-v-epohu-tsifrovyyh-tehnologiy> (дата обращения: 13.04.2024).
6. Щербина Е. Ю., Шмурыгина О. В., Уткина С. Н. Цифровая дидактика профессионально-педагогического образования: основные компоненты // Бизнес. Образование. Право. – 2020. – №. 2. – С. 411-418.
7. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ) Темирова Ш.Р, Хидралиев Р.Т <https://scientists.uz/uploads/conferences/0019/5.65.pdf>